

OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA IJTIMOIIY STIGMANING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Dumarova Gulmira Kozimbekovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22109896>

Annotatsiya

Mazkur tezisda oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarning psixoemotsional holatida ijtimoiy stigmaning namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Oilaviy zo‘ravonlik ayolning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy farovonligiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. Zo‘ravonlikdan keyingi davrda jamiyatning salbiy munosabati, ayolni ayblash, uning boshidan kechirganlarini inkor etish yoki “oilani saqlab qolish” mas‘uliyatini faqat ayol zimmasiga yuklash kabi holatlar ijtimoiy stigmaning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Natijada ayollarda o‘zini past baholash, uyat, aybdorlik, xavotir, ijtimoiy izolyatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi kuzatiladi. Tezisda ushbu jarayonlarning psixologik xususiyatlari va ularni bartaraf etishning ayrim yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy zo‘ravonlik, ijtimoiy stigma, psixoemotsional holat, o‘zini baholash, xavotir, depressiv holat, aybdorlik, ijtimoiy izolyatsiya, psixologik yordam.

Kirish

Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik muammosi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollar ko‘pincha zo‘ravonlikning bevosita oqibatlari bilan bir qatorda, atrof-muhitning munosabati va ijtimoiy bosimga ham duch keladilar. Ayniqsa, zo‘ravonlik holatini oshkor qilish, ajrashish yoki yordam so‘rash jarayonida ayolga nisbatan salbiy stereotiplar va baholovchi munosabatlar kuchayishi mumkin.

Ijtimoiy stigma shaxsning muayyan holati yoki tajribasi sababli jamiyat tomonidan salbiy baholanishi, chetlashtirilishi yoki “boshqalardan farqli” sifatida qabul qilinishini anglatadi. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarga nisbatan “o‘zi sababchi”, “oilani saqlab qola olmadi”, “chidashi kerak edi” kabi stereotipik qarashlar ularning psixologik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayolning psixoemotsional holati bir qator salbiy kechinmalar bilan tavsiflanishi mumkin. Jumladan, doimiy qo‘rquv, xavotir, tushkunlik, o‘ziga ishonchsizlik, uyat va aybdorlik hissi shular jumlasidandir. Agar ushbu holatlarga jamiyatning salbiy munosabati ham qo‘shilsa, psixologik zo‘riqish yanada kuchayishi mumkin.

Ijtimoiy stigmaning muhim xususiyatlaridan biri — **o‘z-o‘zini stigmatizatsiya qilish**dir. Bunda jamiyatdagi salbiy stereotiplar ayol tomonidan ichki tarzda qabul qilinadi. Masalan, ayol zo‘ravonlik uchun o‘zini ayblashi, o‘zini “kuchsiz”, “qadrsiz” yoki “muvaqqiyatsiz” deb baholashi mumkin. Bu esa o‘zini baholash darajasining pasayishiga olib keladi.

Stigmatizatsiya jarayonida ayollarda **ijtimoiy izolyatsiya** ham kuzatilishi mumkin. Ular o‘z tajribasini boshqalarga aytishdan uyalishi, yaqinlari yoki jamiyat tomonidan noto‘g‘ri tushunilishidan qo‘rqishi sababli ijtimoiy munosabatlardan chekinishi mumkin. Natijada

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kamayadi va psixologik muammolarni yengish jarayoni qiyinlashadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy stigma ayolning kelajak haqidagi tasavvurlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Zo'ravonlik tajribasi va jamiyatning salbiy munosabati natijasida ayolda kelajakka nisbatan umidsizlik, o'z imkoniyatlariga shubha va mustaqil qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar shakllanishi ehtimoli ortadi.

Shu nuqtayi nazardan, oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan psixologik ish olib borishda faqat zo'ravonlikning bevosita oqibatlarini bartaraf etish bilan cheklanib qolmaslik lozim. Ijtimoiy stigmaning ta'sirini kamaytirish, ayolning o'z qadr-qimmatini tiklash, ijobiy o'zini baholashni shakllantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarning psixoemotsional holatida ijtimoiy stigma muhim psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatning salbiy stereotiplari va ayolni ayblovchi munosabatlar uning o'zini baholashiga, hissiy barqarorligiga va ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, uyat, aybdorlik, xavotir, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy chekinish kabi holatlar stigmatizatsiyaning muhim psixologik ko'rinishlari hisoblanadi.

Shuning uchun oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarga ko'rsatiladigan psixologik yordam kompleks xarakterga ega bo'lishi, unda individual psixologik maslahat bilan bir qatorda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixoedukatsiya va jamiyatdagi salbiy stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham o'rin olishi zarur. Ayolni ayblash emas, balki uni tushunish, qo'llab-quvvatlash va xavfsiz psixologik muhit yaratish uning psixoemotsional tiklanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Goffman E. *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity*. — New York: Simon & Schuster, 1963.
2. World Health Organization. *Violence against women: prevalence estimates, 2018*. — Geneva: WHO, 2021.
3. Heise L. L. Violence against women: An integrated, ecological framework // *Violence Against Women*. — 1998. — Vol. 4(3).
4. Bandura A. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. — New York: W.H. Freeman, 1997.
5. Herman J. L. *Trauma and Recovery*. — New York: Basic Bo